

BOBOJON SANOIYNING TASAVVUFIIY QARASHLARI

Sapayev G.B.

Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrası dotsenti, f.f.d. (PhD)

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayotida tasavvuf ta'limoti muhim o'rin egallaydi. Tasavvuf g'oyalari xalq ongu shuuriga chuqur singib, milliy madaniyat, adabiyot va axloqiy qadriyatlarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Xususan, Xorazm adabiy muhitida shakllangan tasavvufiy-irfoniy an'analar o'zbek mumtoz adabiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. [1.177]. XIX asr Xorazm ma'rifiy muhitida ijod qilgan, o'z davrining mohir tarjimoni, shoir Bobojon Sanoiy Sanoiy (1825 - XIX asr oxiri) asarlarida ham ushbu masalaga alohida e'tibor berilib, uning ijodida inson kamoloti, ma'naviy olami, axloq va insoniy fazilatlarini nafs hamda o'zligini ahglash masalalari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. XIX asr Xorazm tasavvuf adabiyotida qalam tebratgan faylasuf olim, shoir va yozuvchi bo'lgan Bobojon Sanoiy bir qator original va tarjima asarlarni yaratdi.

Bobojon Sanoiy (asli ismi Mullo Bobo valadi Xudoyberdibek) ana shu muhitda yetishib chiqqan yirik mutasavvuf olimlardan biri bo'lib, uning asarlarida inson ma'naviyati, nafs tarbiyasi, ma'rifat va komil inson g'oyalari markaziy o'rin egallaydi. Zero, XVIII - XIX asrlarda Xorazmda yashab ijod qilgan Sanoiyning boy ma'naviy merosi, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy va ma'rifiy qarashlari u yashagan davrdagi jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan.

Bobojon Sanoiy XIX asr Xorazm tafakuri tarixida "Komil inson kontseptsiyasi"ni atroflicha ishlab chiqqan ilk mutafakkir bo'lib, uning tasavvufiy qarashlarida inson mohiyatini falsafiy tahlil qilinadi, ma'naviy-axloqiy jihatdan tushuntiriladi. Shu nuqtai nazardan uning gumanistik va tasavvufiy qarashlarini zamonaviy yondoshuvlar asosida tadqiq etish, tasavvuf tafakkuri rivojida o'rini yoritish dolzarb vazifadir.

Tasavvufshunos olim N.Komilovning ta'kidlashicha, ushbu davr maktab o'zbek tarjimachilik tarixida eng sermahsul davr bo'lib, turli tillardan 150 dan ortiq asarlar tarjima qilingan. [2.12] Bobojon Sanoiy ham Xorazm tarjima maktabi an'analari asosida shakllangan ijodkorlar qatoriga kiradi.

Feruz va Ogahiyar boshchiligidagi ushbu tarjimachilik maktabi vakili Sanoiy "Haft kishvar", "Mehr va Moh" kabi asarlarni tarjima qilish bilan birga, "Kanz ul-maorif", "Hadiqai azhor" kabi original asarlarni ham yaratgan.

Tadqiqot vazifalari va metodologiyasi. Bobojon Sanoiy ijodiga uning islom dini va mafkurasi, ma'naviy hayotda ustuvor bo'lgan diniy g'oyalarning ta'siri katta bo'lgan. Shu sababdan ham mutafakkir ijodida ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy va gumanistik qarashlar diniy hamda tasavvufiy g'oyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uyg'unlashib ketgan. Bobojon Sanoiyning tasavvuf va diniy-irfoniy qarashlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda uning bugungi kundagi yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashdagi ahamiyatini ko'rsatish, tadqiq qilish bugunning asosiy vazifasidir. Shu nuqtai nazardan Sanoiy asarlaridagi nafs, uning turlari va kelib chiqishi, nafsni tarbiyalash, inson ma'naviy kamolotga erishish shartlariga oid g'oyalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan kompleks o'rganib, ilmiy jamoatchilikka tanishtirish, olimning tasavvufiy qarashlarini nazariy asoslari o'rganib, gumanistik g'oyalari mohiyatini tushunish lozim. Mazkur mavzuni tadqiq qilish va tahlil qilishda B.Sanoiyning "Hadiqai azhor" ("Gullar bog'i"), "Kanz ul-maorif" ("Bilimlar xazinasi"), "Mehr va Moh" kabi asarlaridan manba sifatida foydalanib, unda tarixiy-tahliliy, mantiqiylik, dialektik, sinergetik va umuminsoniylik usullardan foydalanildi. Shu bilan birga ushbu alloma ijodini yaqindan o'rgangan N.Komilov va Sh.Shokirovalarning ilmiy ishlaridan unumli foydalanildi.

Muhokama. Bobojon Sanoiy asarlarida asosan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy va insonparvarlik mavzulari ko'tarilgan bo'lsada, diniy hamda tasavvufga oid qarashlari ham tahsinga loyiq. Ayniqsa uning tasavvufiy qarashlari islomiy falsafa va tasavvuf ta'limoti bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, u Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va G'azzoliy kabi mutafakkirlar asarlarini chuqur o'rganganini qayd etiladi. [1.178]

Aniqroq aytganda, ushbu mutafakkirlar ta'limotiga qiziqqan holda falsafani chuqur o'rgangan. O'rganishlaridan kelib chiqib, barcha ilmlar mohiyati va foydasi inson va uning haqiqatini anglashga xizmat qilishi bilan belgilanishi lozim, degan xulosa kelgan. Dunyoviy ilmni o'rganish ham, diniy bilimlarni o'zlashtirish ham avvalo inson o'zligini anglashga yordam beradi. Bu esa inson dunyoqarashini kengaytirib, uni ma'naviy kamolot sohibiga aylantiradi. Aksincha, ma'naviy olami buzuq kishining ilmi va amali o'zi hamda jamiyatga zarar yetkazadi.

Bu holat uning ijodida falsafiy va irfoniy qarashlarning uyg'unlashuviga sabab bo'lgan. Tasavvufdagi ma'rifat, haqiqat va ruhiy kamolot masalalari uning asarlarida markaziy o'rinni egallaydi. Masalan, "Hadiqai azhor" asari Sanoiyning eng muhim tasavvufiy-falsafiy asarlaridan biri hisoblanib, asarda inson mohiyati va uning ma'naviy kamoloti masalalari tahlil qilinadi. Bunday xulosaga dalil sifatida Sanoiyning "Hadiqai azhor" ("Gullar bog'chasi") asarida o'zi yozgan fikrni keltirish o'rinlidir: "Va hamma ilmlar kasbidan g'araz ma'rifatullohdir. Va ma'rifatullohning ibtidosi ma'rifati nafsdur." [3.20a]

Bu fikr tasavvufdagi asosiy tamoyil — "o'zini bilgan Robbini biladi" g'oyasi bilan uyg'unidir.

Sanoiy dunyoqarashining muhim xususiyatlaridan biri bu, borliqni islom dini va tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan idrok qilishidir. U Allohning yagonaligini, borliqning Alloh tomonidan yaratilganini e'tirof etgan, taqdir, jannat masalasida ortodoksal islom pozitsiyasida bo'lgan. Mutafakkir aytishicha, butun tabiat, hayvonot dunyosini, shu jumladan, inson ham Allohning irodasi bilan yaratilgan. Bunda Naqshbandiya ta'limotining ta'siri katta bo'lib, insonni barcha yaratilganlar ichida eng azizidir deydi.

Sanoiy ta'limotida nafs masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra, barcha ilmlarning asosiy maqsadi insonni o'zligini anglashga olib borishdir. Mazkur asarning asosiy g'oyasi inson nafs va uning tarbiyalashga qaratilgan.

Sanoiy nafsni turlicha izohlab, shulardan biri unga “o‘z” deb ta’rif beradi. Tadqiqotchi olim Sh.Shokirova aytishicha, Sanoiy nafsning yana ta’rifiga to‘xtalib, “bu narsa yoki muddaoning o‘zginasi, ya’ni aynan o‘zi, haqiqati degan ma’nodir.” [4. 21]

Sanoiy nafsning bir necha turlari borligini aytib o‘tadi:

Kirmoyin hargiz mashomi jon aro, // Necha turluk nafs o‘lur inson aro.[3.32a]

Sanoiy fikricha, nafsning nafs insoniy va nafs notiq turlari bo‘lib, bu aqlni rivojlantiradi hamda nutqini go‘zal qiladi. Bu esa insonni yaratilganlar ichida eng sharaflisiga aylantirib, uning maqomini yuksaklikka ko‘tarishga xizmat qiladi. Agarda nafs insoniy bo‘lmasa barcha ilmi va kasb-hunari hayvoniy xohish-istaklarini qondirishga sarflaydi:

Manga andog‘ kishigadur inkor, // Nafs uchun qilsa pesha ul g‘addor. [3.54b]

Shoirning bildirishicha, tasavvuf nafaqat nafsni axloqiy tarbiyalaydi, balki hayot falsafasi bo‘lib, aql yordamida oliy haqiqatni anglashga yordam beradi. YA’ni tasavvuf yordamida kishi yaxshi va yomonni anglaydi, yomon illatlardan poklay, yaxshilarini yanada ziynatlaydi hamda ezgulikka yetaklaydi.

Shuningdek, Sanoiy inson nafsini 4 ta guruhga ajratadi: nafs ammora, nafs lavvomi, nafs mutmainna va nafs mulhama. Nafs ammora buyruq beruvchi nafsoniy kuch bo‘lib, bu faqat nafs buyrug‘i bilan ish qiluvchi, shaxsiy manfaat yo‘lida hamma ishga tayyor kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu nafs kishilarni turli balolarga giriftor qilib, o‘g‘rilik, zo‘ravonlik, buzuqlikka va ichkilikka yetaklaydi.

Bunday nafsning asosiy belgilari, kibr, hasad, takabburlik, kek saqlash, o‘chakishish, janjalkashlik, g‘iybat kabi salbiy xislatlardir. Nafs lavvomaning ma’nosi doim koyib va tergap turuvchi nafsoniy kuch bo‘lib, nafsni jilovlagan, aqlga bo‘ysundirgan va nafs g‘olib kelganda o‘zini-o‘zi koyib, yana nafsni mag‘lub qila oladigan nafsdur. Bunday nafs ega bo‘lgan kishilar hayot uchun zarur bo‘lgan nafsoniy talablarni yaxshilik bilan meyoridan oshirmasdan qondiradilar. Bunday insonlar o‘zlarini ham, boshqalarni ham xursand qilgan holda baxtiyor yashaydilar.

Nafs mutmainna egalarning nafs butunlay jilovlangan bo‘lib, bular nafsdan holi, hatto uni o‘ylamaydigan, tinch yashaydigan kishilardir.

Nafs mulhama ko‘proq ilm, hikmat va san’at ahlida bo‘lib, bu nafs kishida jozibali istaklarni, his-hayajon, ijodkorlikni uyg‘otadi, go‘zallik va oliy qudratni sevish kabi xislatlarni ustuvor bo‘ladi.

Donishi nafsing saning oson emas,

Kimsa yo‘qkim anga dono bo‘lg‘ay ul,

Haqq‘a dono bo‘lmayin imkon emas.

Kimki o‘z aybig‘a bino bo‘lg‘ay ul. [3.64a]

Shoirning Sanoiyning borliqqa oid qarashlari diniy-irfoniy fikrlari bilan bog‘liq. YA’ni u insonga tabiatning bir qismi sifatida qarab, uning ruhiy va axloqiy xususiyatlarini tasavvuf nuqtai nazaridan izohlaydi. Asarlarida asosiy e’tibor insonning o‘zligini anglashga qaratilgan bo‘lib, bu tasavvuf ta’limotining markaziy g‘oyalardan biri hisoblanadi. Masalan, Sanoiyning ilmiy-falsafiy qarashlari aks etgan “Kanz ul-maorif” asarida inson tabiatini idrok etishda sufiyona yondashuv ustunlik qilib, insonning ruhiy kamolot bosqichlarini tahlil qilani.

Muallif sufiylikdagi darveshlik yo‘lini, Xudoga yaqinlashish jarayonini va ma’rifatga erishish bosqichlarini tushuntiradi. Sanoiy o‘z oldiga inson yaralishi, mohiyati, maqsad-muddaolarini, uning boshqa mavjudotlardan farqi va hayotining mazmunini anglash vazifasini qo‘yadi.

“Kanz ul-maorif” asarida insonning ichki dunyosi, fe’l-atvori, yaxshi va yomon ishlari, axloqiy qadriyatlari. uning ma’naviy o‘sishi va haqiqatni anglash jarayoni asosiy mavzulardan biri sifatida qaratiladi.

Mutafakkir fikricha, inson Xudoni bilish, va unga yaqinlashish uchun avvalo, ruhini chiniqtirish, yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli va haqiqatni anglashi lozim. Chunki Xudo odamni yaratganda va unga makon berganda, barcha ezgu qadriyatlariga ega bo‘lgan, u yashaydigan yerda yaxshili va ezgulik hukm surgan.

Sanoiy ijodida komil inson g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Unga ko‘ra: inson ma’naviy kamolotga erishishi lozim; nafsini tarbiya qilishi shart; ilm va ma’rifatni ezgu maqsadlarda qo‘llashi kerak;

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, o‘zining tasavvufiy-falsafiy qarashlarini she’riy dostonlari orqali badiiy obrazlar vositasida bayon etgan.

Masalan, “Kanz ul-maorif” asaridagi Allohning odamni yaratilishi haqidagi rivoyatda, Yerning e’tiroziga qaramasdan xudo insonni sayyoralar ichidan faqat Yerda yashashga qaror qilgani bildiriladi. Chunki, Yer odamlar ko‘paysa, o‘zaro kelishmovchilik va ziddiyatlar yuzaga kelishini, bir-birlarini o‘ldirib, go‘zal va obod vodiylarni vayron qilishidan shikoyat qiladi.

Xudo esa buni qabul qilmay, insonning ezgu fazilatli bo‘lishiga va yaxshi ishlar qilishiga ishonadi hamda butun olam unga xizmat qilsin deydi:

Oni xalq etmak uchun bu koinot,

Ulvi-yu suflı jami‘i mumkinot.

Xalq qilmoqdin muredd ul erdi bas,

Erdi xalqi Odamiy bizga havas.

Har nekim arshi ulodin to samak,

Bor dururlar jumlai jinnu malak.

Xalq qilmishman tufayli Odamiy,

Ul xalifa, tobe‘ ahli olami. [5.11b]

Shoirning bunday fikrlari tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi Yerdagi yovuzlik va odamlar o'rtasidagi yomonliklarga Allohni ayblamaslikni, bunga odamning fe'li, axloqiy buzqligi, ma'naviyati va nafs sababchi ekanligini aytmoqchi bo'ladi. Agar inson ma'naviy jihatdan kamolotga erishmasa, uning ilmi jamiyat uchun zararli bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Sanoiy darveshlik va uning qonuniyatlarini, ya'ni Xudoga yaqinlashish, ruhni chiniqtirish, ma'rifat va haqiqatni anglash jarayonlarini axloqiy nuqtai nazardan tushuntiradi.

Jamiyatdagi barcha illat va yomonliklarga inson qalbining zaifligi, aniqrog'i qalbida Allohning yo'qligi va yaxshi niyatlar qolmaganligi, oqibatda uning ezgu ruhi tashlab ketishini aytadi: "Odamlarning qalbi so'ngan, shu boisdan inson ruhi ularning nopok tanasini tark etadi" [5.15a].

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, aslida Bobojon Sanoiy aytmoqchiki, Alloh insonni komillikka erishish imkoni bilan yaratgan, lekin u bu dunyoga kelib, nafs, yovuzligi, ichidagi "men"i, qalbining ko'rligi sabab komillikdan uzoqlashgan. Chunki komil inson bo'lib yetishishi uchun ezgu yo'lni bosib o'tishi, olamga teran va yaxshi ko'z bilan boqishi, voqeahodisalaridan to'g'ri xulosa chiqarib, hayotini go'zallashtirishi lozim. Insonning ma'naviy kamolotida uning ko'ngil ko'zgusi doimo ochiq bo'lishi va har qanday buzuq nafsdan uzoqda yurishi lozim.

Buning uchun Allohning buyurganini qilmog'i, unga bo'ysunmog'i va nomiga munosib hayot kechirmog'i kerakligini ta'kidlaydi: "Endi, sen ham o'zingga nazar qilg'ilkim, ne uchun xalq bo'lubsan? Jumlai olam sening asbobingdur, san nega darkordursan? Va bu latif badan va zarif jismkim, mutaharrik ko'rguvchi va eshitguvchi va bilguvchidur, ne jihatdin berilibdur?" [5.130a]

Demak, "Kanz ul-maorif" nafaqat axloqiy, balki insonning o'zligini anglashga, komillikka, ogohlikka da'vat etadigan asardir. Asarning birinchi bobi shunday boshlanadi: "Bilgil va ogoh bo'lg'il va g'aflat xobidin bedor bo'lub, ko'ngil ko'zin ochg'il va xushyorlig' birla nazar qilg'ilkim, har suratg'a xosiyatiyu har majozg'a ma'aniyi paydo va har ma'nig'a tahqiqi huvaydo turur. Andog'kim, oftobu oyning suratlarida xosiyat uldurkim, anvoru asor latofatiyu sharofatidin sarosar olam zavoyolarining zulmatu tiyraliklari kudratin raf' etib, ravshanu munavvar qilurlar. Qavluhu taolo: "Va ja'ala-l-qamaro fihinna nuran va ja'ala-sh-shamsa sirojan." [4.128 a]

Shu jihatdan, Sanoiy tasavvufni nafaqat diniy, balki axloqiy-falsafiy ta'limot sifatida qaragan holda, u insonparvarlik, adolat, poklik va ma'naviy kamolot g'oyalarini ilgari surgan. Tadqiqotchi Sh.Shakirova ta'biri bilan aytganda, "Kanz ul-maorif" asarida inson tabiatini idrok etishning so'filylik jihati ustunlik qiladi". [6. 21].

Xulosa: yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Bobojon Sanoiyning tasavvufiy qarashlari XIX asr Xorazm adabiy va ma'rifiy muhitida muhim o'rin tutadi. Uning asarlarida inson ma'naviyati, nafs tarbiyasi, ma'rifat va haqiqat, komil inson g'oyasi kabi masalalar chuqur falsafiy tahlil qilingan. Olim o'z tasavvufiy qarashlarini, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, ma'rifiy g'oyalari bilan uyg'un holda ifodalagan. Olim o'zining tarjima asarlari va she'rilarida inson hayotidagi barcha ezgu ishlar, baxtiyorlik davrlarini, shu bilan birga barcha ko'ngilsizlik, baxtsizlik va illatlarga inson nafs sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Umuman, Bobojon Sanoiy inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlikning asosiy manbasi sifatida nafsni ko'rsatib, buni tarixdagi inson kelib chiqishi va hayotiga oid turli rivoyatlardan foydalangan holda tushuntiradi. Komillik va ma'naviy-axloqiy yetuklikka pastkash nafsni jilovlash va qalbni poklash orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan Sanoiyning ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, u milliy ma'naviyat va tasavvuf tadqiqotlari uchun muhim manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Shakirova. Xorazm tasavvuf adabiyotida Bobojon Sanoiyning ilmiy faoliyati. FLEDU – O'zbekistonda xorijiy tillar. (www.journal.fledu.uz) ilmiy-metodik elektron jurnal 2016 y. 5-son.
2. Komilov N. Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati. Filol. f.n. dis. – T., 1970.
3. Bobojon Sanoiy. Hadiqat ul-azhor va javohir ul-asror. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. Inv. P № 891-1.
4. Sh.Shakirova. "Bobojon Sanoiyning tasavvufiy-irfoniy asarlari". "Sharq mash'ali" jurnali 2015. 3-son.
5. Bobojon Sanoiy. "Kanz ul-maorif". O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar. Inv. № 891/III.
6. Shakirova Sh.Yu. Bobojon Sanoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari. Monografiya. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Xorazm ma'rifatchiligi va tarjima maktabining yirik vakili Bobojon Sanoiyning tasavvufiy qarashlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Unda olimning diniy-irfoniy g'oyalari ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan ochib berilgan hamda shoirning hurfikri atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tarjima maktabi, komil inson, nafs, aql, axloq.

Аннотация. В данной статье с социально-философской точки зрения проанализированы суфийские взгляды Бабоджона Санон — крупного представителя просветительства и переводческой школы Хорезма XIX века. В работе раскрыты религиозно-мистические идеи ученого с позиции социально-нравственного анализа, а также всесторонне освещено свободомыслие поэта.

Ключевые слова: суфизм, переводческая школа, совершенный человек, нафс, разум, нравственность.

Annotation. This article provides a socio-philosophical analysis of the Sufi views of Bobojon Sanoiy, a prominent representative of the Enlightenment and translation school of Khorezm in the 19th century. It examines the scholar's religious and mystical ideas from a socio-ethical perspective and offers a comprehensive interpretation of the poet's freethinking.

Key words: Sufism, translation school, perfect human (insan al-kamil), nafs (ego/soul), intellect, morality.